

Termiz shahar IIBda yangi tayinlov amalga oshirildi



Termiz shahar IIBda yangi tayinlov amalga oshirildi

Bugun, 26 iyul kuni Termiz shahar IIBda bo'lib o'tgan yig'ilishda ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'i bilan tayinlov amalga oshirildi.

Podpolkovnik Nurullayev Elbek Abduqodirovich Termiz shahar ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Tayinlovga qadar Elbek Nurullayev Denov tumani IIB boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan.

Yig'ilishda, Surxondaryo viloyati IIB boshlig'i Abduvoxid Ismoilov, shahar hokimi Isroil Xudoyberdiyev, sektor rahbarlari, viloyat IIB boshlig'i o'rinbosarlari, sohaviy xizmat rahbarlari, Termiz shahar IIB xodimlari ishtirok etishdi. Surxondaryo viloyati IIB boshlig'i tomonidan, Termiz shahrida jinoyatchilik va xuquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish choralari kuchaytirish va bu borada keng jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.





